

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

**МАМЛАКАТИМИЗНИНГ ИLM-FAN SOHASIDAGI HALQARO
НАМКОРЛИГИ**

Faxriddin Yormatov Joylovovich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tarix kafedrasini mudiri, t.f.n, dotsent.

faxriddin_yormatov@tues.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan davrida ilm-fan sohasida olib borayotgan hamkorligi hamda erishilgan ijobiy natijalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Prezident ilm-fan, hamkorlik, oksford, innovatsion rivojlanish, amaliy loyihalar, taraqqiyot strategiyasi.

**МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО НАШЕЙ СТРАНЫ В
СФЕРЕ НАУКИ**

Фахриддин Ёрматов Джайлович

Кандидат исторических наук, доцент,
заведующий кафедрой "История"

Термезского университета экономики и сервиса

faxriddin_yormatov@tues.uz

Аннотация. В данной статье представлена информация о сотрудничестве нашей страны с зарубежными государствами в сфере науки в текущий период, а также о достигнутых положительных результатах.

Ключевые слова: Президент, наука, сотрудничество, Оксфорд, инновационное развитие, прикладные проекты, стратегия развития.

INTERNATIONAL COOPERATION OF SCIENCE IN UZBEKISTAN

Faxriddin Yormatov Djoylovovich

PhD in History, Associate Professor

Head of the Department of History

Termez University of Economics and Service

faxriddin_yormatov@tues.uz

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

Abstract. This article provides information about our country's cooperation with foreign states in the field of science during the current period, as well as the positive results achieved.

Keywords: President, science, cooperation, Oxford, innovative development, practical projects, development strategy.

Mamlakatimiz halqaro miqyosda ilm-fan taraqqiy etgan davlatlar va boshqa manfaatdor halqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatmasdan turib ayri holda taraqqiy etishi nihoyatda qiyin. O'zbekiston mazkur soha rivojini ta'minlash uchun islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar bilan ham keng qamrovli aloqalarni olib bormoqda. Xususan, 2018 yil 8-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev Fransiya davlatiga bo'lgan rasmiy tashrifi chog'ida Yunesko Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashib, birgalikda O'zbekiston bilan Yunesko aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan 2021-yilgacha dasturni imzoladi. [1].

Yangi O'zbekistonda yoshlarda ilm-fanga va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirish, barcha jamiyatlarda islom qadriyatlari va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, dunyoning barcha xalqlariga Islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun muhimdir. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro miqyosda konfessiyalar, millatlar va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish, tinchlik va totuvlikka erishishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning bu boradagi o'rni hamda aloqalari haqida gapirib shunday degan edi. "Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion rivojlanishsiz, keng ko'lamlil ilmiy-texnik kooperatsiyasiz va yangi texnologiyalar, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Aynan shuning uchun ilm-fan va texnikani yanada rivojlantirish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning intellektual salohiyatini mustahkamlash tashkilotimiz faoliyatida muhim o'rin egallashi lozim, deb hisoblaymiz"[2]. Prezident farmoniga asosan, Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'armaning jami daromadlari bugungi kun holatiga 8,7 mln AQSh dollari miqdorida shakllantirildi. Jamg'arma tomonidan hozirgi kunga qadar 33 nafar yosh olimning xorij mamlakatlariga ilmiy stajirovkalari tashkillashtirildi. Jalb qilingan xorijiy yuqori malakali olim va mutaxassislarning xarajatlarini moliyalashtirishga 17,0 ming AQSh dollari hamda 70 mln so'm miqdorida

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

mablag‘ yo‘naltirildi. Bundan tashqari, 2018 yil 20 avgustda yosh olimlar uchun qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborish maqsadida tanlov e‘lon qilindi, 8 nafar yosh olim tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tdi. Mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan hamkorligi doirasida grantlar e‘lon qilinishi ham yanada kengayib borayapdi. 2019 yili Hindiston, Turkiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Xitoy davlatlari bilan hamkorlikda 40 mlrd so‘mga yaqin grantlar e‘lon qilindi[3].

2022 yil 28 yanvarda qabul qilingan “2022 -2026 yillarga mo‘ljallangan PF-60-sonli Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida[4]gi” farmonning 52-maqsadi Global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirishini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Toshkentda 2022 yil 8 aprel kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar Ilm-fan va texnika bo‘yicha rahbarlarining oltinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi[5]. 2010 yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan mazkur tadbir ilmiy-texnik va innovatsion hamkorlikni o‘rnatish va takomillashtirish uchun samarali maydon bo‘lib, ShHT hududida o‘zaro manfaatli mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Masalan, Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Xitoy Fan va texnologiyalar vazirligi tomonidan 20 ta eng yaxshi qo‘shma loyiha uchun tanlov e‘lon qilingan. Hindiston, Rossiya Federatsiyasi bilan sheriklik doirasida bir qator qo‘shma ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda, ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilinmoqda. Paxta seleksiyasi, agrotexnologiyalari urug‘chiligi ilmiy-tadqiqot va yetishtirish institutida Germaniyalik mutaxassislar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Muzokara davomida Florian Nitsinger GIZ tashkilotining yuqorida keltirilgan uch vazifadan aynan birinchisi institutning faoliyati bilan uzviy bog‘liq ekanligiga urg‘u berdi. Xorijiy mamlakatlardagi universitet va ilmiy tadqiqot markazlari bilan o‘rnatilayotgan amaliy hamkorlik aloqalari mamlakatda ilm-fanning yanada rivojlanishiga, Uchinchi renessansning mustahkam poydevorini bunyod etishga zamin yaratmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyadagi Oksford islom tadqiqotlari markazi Yangi O‘zbekistonga mana shunday qiziqish bildirmoqda. Oksford islom tadqiqotlari markazi islomshunoslik sohasida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1985 yilda tashkil qilingan bo‘lib, bugungi kunda u o‘z sohasida jahonning eng ko‘zga ko‘ringan, ilg‘or ilmiy- tadqiqot muassasalaridan biri hisoblanadi. Ushbu markaz yurtimizdan yetishib chiqqan ikki buyuk alloma, hadis ilmining ikki buyuk darg‘asi - Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomidagi xalqaro grantlarni joriy qilgani esa uning yurtimizga, xususan, allomalarimizning hayoti va ilmiy merosini o‘rganishga qanchalik jiddiy e‘tibor qaratganini ko‘rsatadi. Oksford

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

islom tadqiqotlari markazi direktori doktor Farxan Ahmad Nizamining yurtimizga tashrifi davomida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy- tadqiqot markazida ham bo‘lib, u yerda talaba va tadqiqotchilarning diniy hamda dunyoviy ilmlarni mukammal egallashlari uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, uchrashuv davomida ilmiy tadqiqot sohasida bir qator istiqbolli loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi. Ushbu kelishuvning amaliy ifodasi sifatida 2022-yil 14-yanvar kuni Oksford islom tadqiqotlari markazi bilan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi o‘rtasida Anglashuv memorandumini imzolandi[6]. 2019 yilning 15-22 mart kunlari “GRAND TA’LIM” nodavlat ta’lim muassasasi “Hilal Travel” turistik tashkiloti bilan hamkorlikda Malayziya davlatiga safar tashkil etildi. Safardan ko‘zlangan maqsad, bugungi kunda nafaqat Malayziyada balki, Osiyo va jahon universitetlari reytinglarida yuqori pog‘onalarda turuvchi nufuzli ta’lim dargohlarining ilg‘or tajribalari bilan tanishish, ta’lim tizimidagi yutuq va muvaffaqiyatlarni o‘rganish asnosida o‘zaro hamkorlik o‘rnatish borasida muzokaralar olib borildi. Ulardan; Malayziya Paxang Universiteti (University Malaysia Pahang), - Malayziya Putra Universiteti (University Putra Malaysia), -Malayya Universiteti (University of Malaya), -Malayziya Seins Islom Universiteti (University Sains Islam Malayziya).

Hindiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi innovatsion va ilm fan sohasidagi hamkorlik ham yil sayin yana taraqqiy etib bormoqda. 2018 yil 1 oktabr kuni Dehli shahrida O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Hindiston Respublikasi hukumati o‘rtasida fan- texnika va innovatsiyalar sohasida hamkorlik to‘g‘risida” 15 moddadan iborat bitim imzolandi. O‘zbekiston rahbarining Hindistonga oliy darajadagi tashriflari doirasida erishilgan kelishuvlarni bajarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan qator ishlar, Prezident Shavkat Mirziyoev hamda Bosh vazir Narendra Modining so‘nggi uchrashuvi bu hamkorlik ko‘lamining yanada kengayishiga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi hozir sun‘iy intellektni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni transfer qilish bo‘yicha Hindistonning “Routern.com” kompaniyasi bilan aloqalarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, mazkur kompaniya direktori Chandranata Sharma Innovatsion rivojlanish vazirligining Hindistondagi elchisi etib tayinlangan. Hindiston Fan va texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda qo‘shma ilmiy loyihalar tanlovi ham o‘tkazilmoqda. Tanlovda 137 ta loyiha ko‘rib chiqilib, 23 ta istiqbollisi 2021 yilning 1-choragida fan va texnika sohasidagi hamkorlik bo‘yicha

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

o‘zbek-hind qo‘shma qo‘mitasi doirasida moliyalashtiriladi. Biotexnologiya, farmasevtika, katta hajmli ma‘lumotlar sohaslarida faoliyat yuritayotgan 20 nafar yosh olim va tadqiqotchi ushbu hamkorlik doirasida Hindistonga stajirovkaga borishiga kelishilgan. O‘zbekiston va Eron o‘rtasida ham ilm-fan sohasida keng qamrovli hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan. O‘zbekiston va Eron iqtisodiyoti o‘zaro manfaatli tarzda bir-birini to‘ldirib, biotexnologiya, to‘qimachilik, elektrotexnika, kimyo, farmasevtika, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi sohalarda hamkorlik ko‘lami yildan yilga kengayib bormoqda. Prezidentimiz mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lgan Eron Islom Respublikasi Prezidentining ilm-fan va texnologiyalar bo‘yicha vitse prezidenti Sorena Sattoriyni qabul qildi[7]. O‘zbekiston Respublikasi hamda Belarussiya Respublikasi ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi hamkorligi ham keng rivojlanmoqda. 2021 yil 29 oktabr kuni O‘zbekiston-Belarus ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi hamkorlik bo‘yicha qo‘shma komissiyaning ikkinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishga O‘zbekiston tomondan innovatsion rivojlanish vaziri Ibrohim Abdurahmonov va Belarus tomonidan Belarus Respublikasi Ilm-fan va texnologiyalar bo‘yicha davlat komiteti raisi Aleksandr Shumilin raislik qildi[8]. Yig‘ilishda O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi ilmiy texnik hamkorlikning hozirgi holati va istiqbollari, ilmiy-texnik hamkorlik yo‘nalishlarini faollashtirish, 2019 - 2021 yillar davomida amalga oshirilgan qo‘shma ilmiy loyihalarning bajarilishi holati, qo‘shma ilmiy loyihalar tanlovi natijalari, 2021 – 2023 yilda bajarilishi lozim bo‘lgan ilmiy loyihalar ro‘yxati, shuningdek, hamkorlikda tashkil etiladigan boshqa tadbirlar muhokama etildi. Ta’kidlash joizki, 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Belarus ilmiy-texnik hamkorligi dasturi doirasida 15 ta loyiha bajarildi va ularning yakunlariga ko‘ra qator muhim ilmiy natijalar olindi. Tomonlar 2021-2023 yillarda qo‘shma ilmiy loyihalar sonini 30 taga yetkazishga kelishdilar. 2023 yil 2-iyun kuni Cho‘lpon ota shahrida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo va Yevropa yetakchilarining ikkinchi uchrashuvida ishtirok etib nutq so‘zladi. Prezident o‘z nutqida hamkorlikning ustuvor va o‘zaro manfaatli yo‘nalishlariga e‘tibor qaratib, quyidagilarni ta’kidladi. “O‘zbekistonda Yevropaning yettita universiteti filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Lekin bu yetarli emas. Yaqin istiqbolda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan sheriklikni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma ta’lim dasturlarini, birinchi navbatda, texnika mutaxassisliklari bo‘yicha joriy qilish niyatidamiz. Ta’lim vazirlari va universitetlar rektorlarining shu formatdagi muntazam uchrashuvlarini qayta tiklash tarafdorimiz. ☐“Yevropa ufqlari” dasturi doirasida

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ilmiy-tadqiqot va ta'lim loyihalarini qo'llab-quvvatlashni kengaytirish imkoniyatini ko'rib chiqishni taklif etamiz"[9]. O'zbekiston ilmiy salohiyatini global miqyosda rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlik faol yo'lga qo'yilmoqda. Bugungi kunda mamlakat 40 dan ortiq davlat bilan ilmiy-texnik hamkorlik bitimlariga ega. Jahon banki, UNDP, KOICA, JICA, DAAD, Erasmus+ kabi xalqaro tashkilotlar bilan qo'shma loyihalar, grantlar asosida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda[10]

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti delegatsiyasi 2025 yil 17 noyabr kuni Koreya texnologiya va ta'lim universitetiga tashrif buyurib, ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasida hamkorlikni kengaytirish masalalarida muzokaralar olib bordi.

Uchrashuv davomida tomonlar o'rtasida qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvini tashkil etish, shuningdek, pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Ayniqsa, zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutayotgan axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt yo'nalishlarida o'zaro tajriba almashish, qo'shma loyihalar yaratish va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur uchrashuv ikki tomonlama akademik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi hamda raqamli ta'lim, innovatsion tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash sifati oshishiga zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Yangi O'zbekiston dunyoning ko'plab davlatlari bilan ilm-fan sohasida hamkorlik aloqalarini o'rnatib ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

АДАБИЁТЛАР

- 1.R. Xomitov "O'zbekistonning eng yangi tarixi" T:, "Innovatsiya-Ziyo". 2023.- B.133.
2. Yormatov F. J. "Fan va texnika taraqqiyoti hamda sanoatdagi o'zgarishlar" (XVII-XXI asr boshlari).T.-B.158.
3. O'sha kitob-B.159.
4. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. <https://uza.uz/uz/posts/ilm-fan-va-texnika-boyicha-hamkorlik-istiqboli-muhokama-qilindi>.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 10, Ноябрь

6. Yoshlar ovozi. 27.01.2022.

7. Янги Ўзбекистон 2022.21.07.

8. <https://yuz.uz/news/O'zbekiston-Belarus-ilm-fan-va-texnologiyalar-sohasidagi-hamkorlik>.

9. Халқ сўзи. 2023.3.06.

10. <https://inlibrary.uz/index.php/ifx/article/view/83605>